

## SHÓRLANGAN TUPROQLAR SHAROITIDA GÓZA NAVLARINING BITTA KÓSAKDAGI PAXTA VAZNI BELGISINING TAHLILI

**Laylo Bóranbek qizi Norimmatova**

Qoraqalpóiston qishloq xójaligi va agrotexnologiyalari instituti  
3-bosqich talabasi

**Bayrambay Aydosovich Jumashev**

Qoraqalpóiston qishloq xójaligi va agrotexnologiyalari instituti assistenti

**Azamat Serikbay ógli Saparbaev**

Qoraqalpóiston qishloq xójaligi va agrotexnologiyalari instituti  
3-bosqich talabasi

**Oygul Islambek qizi Kamolova**

Qoraqalpóiston qishloq xójaligi va agrotexnologiyalari instituti  
3-bosqich talabasi

### ANNOTATSIYA

Maqolada Qoraqalpóiston Respublikasi sharoitida har xil góza navlarining bitta kósakdagi paxta vaznining moslashuvchanligi 2022-2023 yillarda órganilgan va olingan natijalar asosida góza navlarining shórlangan tuproqlarga bólgan chidamliligi aks ettirilgan.

**Kalit sózlar:** góza, kósak, quróqchilik, shórlanish, nav, belgi, tashqi muhit.

### ABSTRACT

In the article, in the conditions of the Republic of Karakalpakstan, the flexibility of cotton weight in one boll of various cotton varieties was studied in 2022-2023, and based on the obtained results, the resistance of cotton varieties to saline soils is reflected.

**Keywords:** cotton, boll, drought, salinity, variety, character, external environment.

### KIRISH

Davlatimiz tomonidan gózaning serhosil, tezpishar, yuqori tola chiqimi va sifatiga ega, oqpalak kasalligi va turli qishloq xójalik zararkunandalariga, sovuqqa va quróqchilikka chidamli,



tabiiy barg tókish xususiyatlariga ega bólgan yangi navlarini yaratishga juda katta e`tibor berib kelinmoqda, chunki bu soha Respublikamizning asosiy iqtisodiy negizlaridan hisoblanadi. Ma`lumki, hozirgi davrda ishlab chiqarishda ekilayotgan góza navlari, asosan, genomichi duragaylari va navlararo chatishtirish orqali yaratilgan bólгани uchun, ularga xos qimmatli-xójalik belgilarini, selekcion uslublardan foydalangan holda, tubdan ózgartirish qiyin. Bundan tashqari, oxirgi paytlarda, góza kasalliklarining yangi irqlari va zararkunandalarning yangi populyაციyalarining paydo bólishi, ekologik muhitning buzilishi (tuproq shórlanishining oshishi, suv tanqisligi va boshqalar) selekciya va genetika fanlari oldiga dolzarb masala, ya`ni selekciya uchun yuqorida kórsatilgan omillarga chidamli yangi donorlarni qidirish va ular asosida yangi góza navlarini yaratish zaruriyatini qóyildi.

### ADABIYOTLAR TAHLILI VA METODOLOGIYA

Góza ósimligida asosiy qimmatli xójalik belgilari bir dona kósakdagi paxta vazni, hosildorlik, tola chiqimi va uzunligi hisoblanadi. Tola esa, gózaning asosiy mahsuloti bólganligi sababli, har góza navining tola chiqimi ma`lum maydondan olinadigan tola miqdorini belgilaydi. Paxtadan yuqori hosil olishda bir dona kósakdagi paxta vazni muhim ahamiyatga ega [1, 3, 5]. Suv bilan kam ta`minlangan va shórlangan tuproq sharoitida góza ósimliklarining xójalik belgilari bóyicha javob reaksiyasi quyidagicha bólgan: hosil elementlarining tókilishi va ularning 30% gacha saqlanishi kuzatilgan, kósak o`girliги 0,8 g gacha, tola chiqimi 1-25% ga, tola uzunligi 0,5-4,0 mm ga kamaygan, vegetaciya davri ham qisqargan [4].

Tajribamizda manba sifatida tolasi IV-V tipga xos góza navlari – Sultan, S-6524, S-4727 va S-4728 navlari órganildi. Bu navlar 3 ta takrorlanishdan, har bir takrorlanishda 6 ta qatordan hammasi bólib 36 qator, 90x20x1 sxemasida ekildi. Ósimlik unib chiqqan kunidan boshlab fenologik kuzatuvlar olib borildi: 50% unuvchanlik; 50% gullash; 50% kósak ochilishi hisob-kitob qilindi.

### NATIJALAR VA MUHOKAMA

Góza ósimligida eng asosiy qimmatli-xójalik kórsatkichlaridan biri – bir dona kósakdagi paxta vazni hisoblanadi. Bir dona kósakdagi paxta vazni – ósimlik mahsuldorligining asosiy tarkibiy qismlaridan biri bólib, hosildorlikni aniqlovchi muhim omillardan biri hisoblanadi. Shuning uchun ham genetik va selekcion ishlanishlarda bu belgining namoyon bólishi, irsiylanishi va ózgaruvchanligini órganishga alohida e`tibor beriladi.

Bir dona kósakdagi paxta vazni belgisini órganish wta murakkab va ma'suliyatli jarayon bólib, bir tup ósimlikning ózida ochilgan kósakdagi paxta vaznining limit (kórsatkichlarning minimum va maksimum oraliği) darajasi juda yuqori bólib, tahlil ishlarini qiyinlashtiradi. Ammo, bu vazn ortishi faqat hosil salmoğining yuqori bólishiga xizmat qiladi.


2022-2023 yillarda hosilidan terib olingan yakka tanlov ósimliklari va oilalarning laboratoriya sharoitida bir ósimlikdagi paxta ógirliğı, chigitni toladan ajratish, tola chiqimi va uzunliğı, bir dona kósakdagi paxta vazni va 1000 dona chigit vazni andoza naviga taqqoslab órganildi.

Ózaning Davlat reestriga kiritilgan Sulton navida bitta kósakdagi paxta vazni belgisi bóyicha olingan natijalarda tahlil qilinganda, ósimliklarning quyidagi 5 ta sinfda taqsimlanganliğı kuzatilib, 5,1-5,5; 5,6-6,0; 6,1-6,5; 6,6-7,0; 7,1-7,5 gramm va sinflar bóyicha taqsimlanishi mos ravishda 10%; 26%; 46%; 10%; 8% ni tashkil etdi. Ushbu góza navida asosan ósimliklar 5,6-6,0 va 6,1-6,5 gramm oraliğida bólgan modal sinflarida joylashganliğı kuzatildi.

S-6524 góza navida bitta kósakdagi paxta vazni belgisi bóyicha esa, olingan natijalari tahlil qilinganda, ósimliklarning quyidagi 4 ta sinfda taqsimlanganliğı kuzatilib, 4,6-5,0; 5,1-5,5; 5,6-6,0; 6,1-6,5 gramm va sinflar bóyicha taqsimlanishi mos ravishda 16%; 40%; 26%; 18% ni tashkil etdi. Ushbu góza navida asosan ósimliklar 5,1-5,5 va 5,6-6,0 gramm oraliğida bólgan modal sinflarida joylashganliğı namoyon bóldi.

Ózaning S-4727 navida bitta kósakdagi paxta vazni belgisi bóyicha olingan natijalarda tahlil qilinganda, ósimliklarning quyidagi 5 ta sinfda taqsimlanganliğı kuzatilib, 4,5-5,0; 5,1-5,5; 5,6-6,0; 6,1-6,5; 6,6-7,0 gr va sinflar bóyicha taqsimlanishi mos ravishda 12%; 46%; 26%; 13%; 3% ni tashkil etdi. Ushbu góza navida asosan ósimliklar 5,1-5,5 va 5,6-6,0 gramm oraliğida bólgan modal sinflarida joylashganliğı kuzatildi.






Rasm. 1. Bitta kósakdagi paxta vazni (2022 y.)

S-4728 góza navida bitta kósakdagi paxta vazni belgisi bóyicha esa, olingan natijalari tahlil qilinganda, ósimliklarning quyidagi 6 ta sinfda taqsimlanganligi kuzatilib, 4,5-5,0; 5,1-5,5; 5,6-6,0; 6,1-6,5; 6,6-7,0; 7,1-7,5 gr va sinflar bóyicha taqsimlanishi mos ravishda 4%; 10%; 22%; 52%; 10%; 2% ni tashkil etdi. Ushbu góza navida asosan ósimliklar 6,1-6,5 gramm oraligida bólган modal sinfida joylashganligi kuzatildi (Rasm.1).

Tajribalarimizning ikkinchi yili ya`ni, 2023 yil hosilidan terib olingan yakka tanlov ósimliklarida bitta kósakdagi paxta vazni belgisi bóyicha gózaning Sultan navida olingan natijalarda tahlil qilinganda, ósimliklarning quyidagi 6 ta sinfda taqsimlanganligi kuzatilib, 4,6-5,0; 5,1-5,5; 5,6-6,0; 6,1-6,5; 6,6-7,0; 7,1-7,5 gramm va sinflar bóyicha taqsimlanishi mos ravishda 2%; 12%; 34%; 36%; 12%; 2% ni tashkil etdi. Ushbu góza navida asosan ósimliklar 5,6-6,0 va 6,1-6,5 gramm oraligida bólган modal sinflarida joylashganligi kuzatildi.

S-6524 góza navida bitta kósakdagi paxta vazni belgisi bóyicha esa, olingan natijalari tahlil qilinganda, ósimliklarning quyidagi 5 ta sinfda taqsimlanganligi kuzatilib, 4,6-5,0; 5,1-5,5; 5,6-6,0; 6,1-6,5; 6,6-7,0 gramm va sinflar bóyicha taqsimlanishi mos ravishda 12%; 44%; 32%; 10%; 2% ni tashkil etdi. Ushbu góza navida asosan ósimliklar 5,1-5,5 va 5,6-6,0 gramm oraligida bólган modal sinflarida joylashganligi kuzatildi.





Rasm. 2. Bitta kósakdagi paxta vazni (2023 y.)

Ózaning S-4727 navida bitta kósakdagi paxta vazni belgisi bóyicha olingan natijalarda tahlil qilinganda, ósimliklarning quyidagi 6 ta sinfda taqsimlanganligi kuzatilib, 4,6-5,0; 5,1-5,5; 5,6-6,0; 6,1-6,5; 6,6-7,0; 7,1-7,5 gramm va sinflar bóyicha taqsimlanishi mos ravishda 10%; 48%; 28%; 10%; 2%; 2% ni tashkil etdi. Ushbu góza navida asosan ósimliklar 5,1-5,5 va 5,6-6,0 gramm oraligida bólган modal sinflarida joylashganligi kuzatildi.

S-4728 góza navida bitta kósakdagi paxta vazni belgisi bóyicha esa, olingan natijalari tahlil qilinganda, ósimliklarning quyidagi 5 ta sinfda taqsimlanganligi kuzatilib, 5,1-5,5; 5,6-6,0; 6,1-6,5; 6,6-7,0; 7,1-7,5 gramm va sinflar bóyicha taqsimlanishi mos ravishda 8%; 26%; 34%; 30%; 2% ni tashkil etdi. Ushbu góza navida asosan ósimliklar 6,1-6,5; 6,6-7,0 va 7,1-7,5 gramm oraligida bólган modal sinflarida joylashganligi kuzatildi (Rasm.2.).

## XULOSA

Olib borilgan tajribalarimizning bitta kósakdagi paxta vazni belgisi bóyicha olingan natijalarda tahlil qilinganda, Sultan góza navida asosan ósimliklar 5,6-6,0 va 6,1-6,5 gramm oraligida bólган modal sinflarida joylashganligi va 26%; 46% ni, S-6524 góza navida asosan ósimliklar 5,1-5,5 va 5,6-6,0 gramm oraligida bólган modal sinflarida joylashganligi va

16%; 40% ni, gózaning S-4727 navida, ósimliklarning asosan 5,1-5,5 va 5,6-6,0 gramm oraligida bólgan modal sinflarida 46% va 26% ni, gózaning istiqbolli S-4728 góza navida esa, olingan natijalari tahlil qilinganda, ósimliklarning 6,1-6,5 gramm oraligida bólgan modal sinfida 52% tashkil etganligi kuzatildi. Ushbu belgi bóyicha kichik nav sinashlarda gózaning Sultan va S-4728 navlari standart S-4727 naviga nisbatan ancha ustunligini namoyon etdi.

## REFERENCES

1. Akkujin D. Izmenchivost` kolichestvennix priznakov // Xlopkovodstvo. –1979.–№ 5.– S.27–28.
2. Dospexov B.A. Metodika polevogo opita. M., Agropromizdat, 1985.
3. Chorshanbiev N.E., Nabiev S.M. Yangi ingichka tolali góza navlarining qimmatli xójalik belgilarini órganish // Góza va boshqa qishloq xójalik ósimliklarida tez pisharlikni hamda moslanuvchanlikni evolyucion va selekcion qirralari: Xalqaro ilmiy konferenciya materiallari. – Toshkent, 2015.– B. 86–88.
4. Qóchqorov O., Alixójaeva S., Kushaliev A., Munasov X. Shór tuproqda óstirilgan tizmalarning qimmatli xójalik kórsatkichlari. //Góza genetikasi, selekciyasi, urug`chiligi va bedachilik twplami. – Toshkent, 2010.– 64–66 B.
5. Toreev F.H., Urazov B.O., Shodmonova G.E., Allambergenov T., Mavlonova N.U.. Fiber quality indexes of newly developed cotton lines and the test results in the enlarged and small nurseries/ Cite as AIP Conference Proceedings 2432, 040023, 2022.

